XOSIYAT RUSTAMOVA IJODIDA MUHABBAT KONSEPTLARINING VERBALLASHUVI

Matkomilova Gulhida Ma’rufjon qizi
Namangan davlat pedagogika instituti ijtimoiy fanlar fakulteti O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi UZB-AU-25 guruhi 2-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: Filologiya fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ***Irodaxon Ibragimova***
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.23883556

Annotatsiya. Mazkur maqolada inson ichki dunyosini ifodalovchi muhim emotsional konseptlardan biri bo‘lgan muhabbat konseptining verballashuvi tahlil qilinadi. Shoira lirikasi psixologizmi, tuyg‘u va kechinmalarning badiiy vositaga aylanishi kognitiv tilshunoslik hamda psixolingvistika nuqtai nazaridan tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Muhabbat konsepti, verballashuv, sevgi, ayriliq, sog‘inch vatan, alloh.

Abstract. This article analyzes the verbalization of the concept of love, one of the key emotional concepts that expresses a person's inner world. The poet's lyrical psychologism the transformation of feelings and experiences into an artistic means is analyzed from the perspectives of cognitive linguistics and psycholinguistics.

Keywords: concept of love, verbalization, love, separation, homesickness, homeland, Allah

Аннотация. В данной статье анализируется вербализация понятия любви — одного из ключевых эмоциональных понятий, отражающих внутренний мир человека. Лирический психологизм поэта, преобразование чувств и переживаний в художественный прием, анализируется с позиций когнитивной лингвистики и психолингвистики.

Ключевые слова: понятие любви, вербализация, любовь, разлука, тоска по дому, родина, Аллах

“Muhabbat” konsepti barcha tillarda inson tuyg‘ularini ifodalovchi tushuncha hisoblanadi.Qancha shoir, qancha ijodkor bo'lsa, ularning konseptual olamida muhabbat tushunchasi o'z holicha namoyon bo'ladi. Albatta, bu namoyon bo'lish lisoniy vositalar yordamida verballashib,

shoirlarga xos reprezentatsiya aks etadi. Jahon adabiyotshunoslari T.Solovyova K.Skvortsov ijodida muhabbat konseptining verballashuvi haqida tadqiqot olib borishgan va quyidagi xulosaga kelishgan: "Muhabbat tuyg'usining turli kategoriyali so'zlardan foydalangan holdagi timsoli bu tushunchaning semantik makonini kengaytiradi: muhabbat lirik subyektning obyektga qaratilgan, lirik subyekt va obyekt harakatlarida gavdalangan ko'p qirrali, murakkab tuyg'u sifatida taqdim etiladi"[1]. O‘zbeklar lisoniy ongida esa “Muhabbat” konsepti voqelikni milliy lisonda ko‘rishi va uni o‘ziga xos idrok etishini “Majnun” ga xos muhabbat ta’rifidan ham ko‘rish mumkin. O‘zbek yozuvchi va shoirlarining ijodini kuzatar ekanmiz ularning aksariyatini muhabbat kuychisi deyish mumkin, ya’ni ular tuyg‘ularni ifodalovchi boshqa konseptlarga nisbatan “Muhabbat” konsepti haqida ko‘proq yozadilar. Ulardan biri o‘ziga xos ovozi, uslubi va poetik olami bilan ajralib turuvchi ijodkor Xosiyat Rustamovadir. Uning ijodida ruhiy kechinmalar, insonning ichki iztiroblari, hayot, o‘lim, ayriliq, sog‘inch, ayollik qalbi hamda muhabbat masalalari obrazli va falsafiy yo‘sinda ifodalanadi. Shoiraning “Osmondagi uy”, “Najot”, “Rido”, “Devor” kabi she’riy to‘plamlari uning poetik dunyosi shakllanishida muhim o‘rin tutadi. Xosiyat Rustamova she’riyati zamonaviy o‘zbek she’riyatining modern yo‘nalishiga mansub hodisa sifatida ham e’tirof etiladi. Muhabbat konsepti Xosiyat Rustamova ijodida faqat “sevgi” so‘zidan tashqari turli obraz, ramz va ruhiy holatlarni ifodalovchi lisoniy birliklar vositasida verballashadi . Shoiraning ijodida sevgi faqat inson uchun emas, balki vatanga, allohga bo‘lgan ilohiy tuyg‘udir. Shu sababli shoira asarlaridagi muhabbat tasviri bevosita va bilvosita ifoda shakllarini qamrab oladi. “Muhabbat” konsepti inson qalbi, sadoqat, visol, hijron, sog‘inch, iztirob, umid, kechirim va fidoyilik kabi ko‘plab ma’no qatlamlarini o‘zida jamlaydi. Badiiy matnda konseptning yuzaga chiqishi, ya’ni verballashuvi, til birliklari orqali amalga oshadi.

Boryapman…
Nishonga tegmagan o‘qday,
Kaftimda dunyo bor — go‘yo bir siqim.
Shuncha olomonning ichidan qo‘rqmay,
Yuragimni baland ko‘tarib chiqdim.
Nima ham ko‘ribman qirq yil ichida,
Yashab ham bo‘ldimmi? O, naqadar oz.

Ont ichishim mumkin. Bari behuda —
Faqat muhabbatim muhabbat, xolos!

Mazkur she’riy parcha muhabbat konseptining bevosita ifodasi bilan ajralib turadi. “Faqat muhabbatim muhabbat, xolos” misrasi she’rning g‘oyaviy markazini tashkil etadi. Bu yerda muhabbat hayotdagi boshqa qadriyatlardan ustun qo‘yilgan yuksak ma’naviy tuyg‘u sifatida talqin qilinadi.

“Yuragimni baland ko‘tarib chiqdim” metaforasi lirik qahramonning o‘z tuyg‘usidan uyalmaydigan, muhabbatini yashirmaydigan qat’iyatli holatini ko‘rsatadi. Yurakni “baland ko‘tarish” muhabbatni himoya qilish, uni qadrlash va unga sodiq qolish ma’nolarini ifodalaydi.

“She’rda ont ichish” birikmasining qo‘llanishi ham bejiz emas. Ont — qat’iy ishonch va sadoqat belgisi. Biroq lirik qahramon barcha narsalardan muhabbatni ustun qo‘yadi. Natijada muhabbat inson hayotining bosh haqiqatiga aylanadi.

Shoira asarlarida muhabbat konseptining eng faol semantik maydonlaridan biri sog‘inch va ayriliqdir. Sog‘inch — mavjud bo‘lmagan yoki uzoqlashgan insonni qalban his qilish holati. Ayriliq esa muhabbatning sinovdan o‘tadigan nuqtasidir.

Ushbu she’rda kórishimiz mumkin:

Sen ketgach…
Kózlarim yiğladi yomon,
Ortingdan shamolni yugurdimi, deb.
Men aytmay biror sóz,
birort kalom -
“Sevaman” deyishga ulgurdimmi, deb.
Ózimni otaman beruh kóchaga,
Ózimni shamolga qilib sargardon.
Yiğladim, shamolning ortidan nega,
Ne uchun yiğladim shamol ortidan…

Mazkur she’rda ayriliqdan keyingi iztirob, aytilmay qolgan muhabbat va kechikkan e’tirof hissini ifodalaydi. Lirik qahramon sevgan inson ketib qolgach, uning ortidan shamolni ham go‘yo quvib yuborgandek tasavvur qiladi; shu orqali ichki bezovtalik va umidsiz kutish holati ochiladi. She’rda shamol eng muhim poetik obraz hisoblanadi.Shamol odatda o‘tkinchilik,

beqarorlik, xabar eltuvchi kuch, ayriliq va erkinlik timsoli sifatida qabul qilinadi. Ushbu she’rda esa shamol ketgan yor bilan lirik qahramon o‘rtasidagi masofani ifodalaydi. Qahramon sevgilining ortidan emas, uning ketishidan qolgan bo‘shliq sababli yig‘laydi.

Sevgi faqat inson uchun emas, balki Vatanga nisbatan ham madh etiladi va buni shoiraning ushbu she’rida kórishimiz mumkin:

Vatanni
Shunchaki sevib bo'lmaydi,
Vatanga shunchaki kelib bo'lmaydi.
Har bir giyohiga...
har bir xasiga -
Sevaman, deyolsang o'zbekchasiga...
Tirik tomirlarda
Olov gurlasa,
Yurakdan samoga o'ralsa gulhan.
Ruhimda charsillab
tonglar gullasa -
Ko'ksimda yurakday yashaysan, Vatan!

Shoira ijodida Vatan madhiga bitilgan she'rlar emas, uni pokiza qalb bilan sevishga bo'lgan chorlovlar ko'p. Zero "vatanni sevmoq iymondandir!" deyilgan hadisi sharifning mazmun-mohiyati Xosiyat Rustamovaning shu mavzudagi she'rlariga bosh g'oya desak, o'rinli aytgan bo'lamiz.

Xosiyat Rustamovaning “Rido” nomli she’riy to‘plamida keltirilgan “ Meni yuraginga yaqin ol, xudo!” nomli she’rida allohga bo‘lgan muhabbati qanchalar kuchliligini ko‘rishimiz mumkin:

Kechikib bo‘lsa-da keldim-ku axir,
Nechun kiprigingdan
Yosh oqar sizib.
Tongda chiqqan edim…
Qayoqlargadir –
Meni loyqa suvlar ketdi oqizib.
Tentidim…
o‘ttiz yil
beiymon, sarson,
o‘ttiz yil o‘zimdan bo‘ldim-ku judo.

Meni quchog‘ingdan quvmagin osmon,
Meni yuragingga yaqin ol, xudo!..

Ushbu parcha orqali Xosiyat Rustamovaning Allohga murojaat qilish, uning rahmatiga intilish, gunohlardan poklanish va najot kutish mavzusida yozilgan eng samimiy asarlaridan biri hisoblanadi. She’rda shoira o‘zining o‘ttiz yillik sarsonlik, beiymonlik, gunohlar ichida o‘tgan umrini tan oladi va oxir-oqibat Allohning quchog‘iga qaytishni, uning yuragiga yaqin bo‘lishni so‘raydi.

Shoira bu she’ri orqali o‘quvchiga shuni yetkazmoqchi, ya’ni inson qancha azob-uqubat, sarsonlik, gunohlar ichida yashamasin, baribir Allohning rahmati, uning quchog‘i pok qalb bilan unga murojaat qilishi kifoya.

Xulosa qilib aytganda, Xosiyat Rustamova she’riyatida, ayriliq va sog‘inch, allohga, vatanga bo‘lgan muhabbat yetakchi mavzulardandir. Shoira muhabbatni sadoqat, kutish, xotira va ruhiy iztirob orqali tasvirlaydi. Ayriliq esa yo‘qotish emas, balki qalbda davom etadigan sog‘inch sifatida talqin qilinadi.

Shoira ijodida vatan va allohga bo‘lgan muhabbat muhim o‘rin egallagan. Vatan obrazi ona yurt, xalq, milliy qadriyatlar va yurt taqdiriga daxldorlik tuyg‘usi bilan bog‘lanadi. Allohga bo‘lgan sevgi esa shunchaki his-tuyg‘u emas, balki insonning ma’naviy yo‘li, gunohlaridan poklanish jarayoni, najot istagidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://inlibrary.uz/index.php/scin/article/view/46189/46522
2. www.ziyouz.com kutubxonasi
3. Rustamova Xosiyat. Najot.-Toshkent: Ma’naviyat,2003.12b
4. Rustamova X. Rido. - Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 2004.
5. Xosiyat Rustamova. // Ziyouz adabiy portali.
6. Xosiyat Rustamova she'riyatida vatan mavzusi talqini" // Electronic Research Archive 2022